

Issues related to court costs in resolving election disputes

Karima RAJABOVA¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
15 August 2024

Keywords:

election disputes,
administrative settlement,
judicial settlement,
court costs,
state duty,
legal costs.

ABSTRACT

This article analyzes the methods of resolving electoral disputes, in particular the procedure and timeframes for resolving such cases by administrative courts within the framework of the legislation of Uzbekistan. Two different categories of legal costs, their specifics, and related practical and theoretical problems are discussed, and some solutions are proposed.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp86-90>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Saylovga oid nizolarni hal etishda sud xarajatlariга oid masalalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

saylovga oid nizolar,
ma'muriy tartibda hal etish,
sud tartibida hal etish,
sud xarajatlari,
davlat boji,
sud chiqimlari.

Ushbu maqolada saylovga oid nizolarni hal etish usullari, xususan bunday ishlarni ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib hal etish tartibi, muddatlari O'zbekiston qonunchiligi doirasida tahlil qilinib, ushbu protsessda sud xarajatlari bilan bog'liq masalaga asosiy urg'u beriladi. Sud xarajatlari ikki xil toifasi, ularning o'ziga xos xususiyatlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan amaliy hamda nazariy muammolar muhokama qilinib, muallif tomonidan ularga ayrim yechimlar taklif etiladi.

¹ Teacher, Tashkent State University of Law.

Вопросы, касающиеся судебных издержек при разрешении избирательных споров

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

избирательные споры, административное урегулирование, судебное урегулирование, судебные издержки, государственная пошлина, судебные издержки.

В данной статье анализируются способы разрешения избирательных споров, в частности порядок и сроки разрешения таких дел административными судами в рамках законодательства Узбекистана. Обсуждаются две различные категории судебных издержек, их специфика и связанные с ними практические и теоретические проблемы, а также предлагаются некоторые решения.

KIRISH

Soʻngi yillarda mamlakatimizda demokratiyaning asosiy elementlaridan biri boʻlgan saylov jarayonlari avj olganligini koʻrishimiz mumkin. Ushbu jarayon demokratiya deyilishi bejiz emas, albatta. Zero, fuqarolar aynan saylov jarayonlarida Konstitutsiya darajasida oʻrnatilgan oʻzlarining huquqlarini, davlatni boshqarishdagi oʻrnini faol tarzda namoyon qilishadi. Mazkur holat toʻliq namoyon boʻlishi esa fuqarolarni saylov huquqlari toʻliq himoyada ekanligi muhim ahamiyatga egadir. Oʻzbekiston qonunchiligida fuqarolar oʻzlarini saylov huquqlarini ikki xil usulda himoya qilishlari mumkin. Bular: maʼmuriy va sud tartibida.

Fuqarolarning huquqlarini maʼmuriy tartibda himoya qilish deganda, ayrim adabiyotlarda gataʼriflanganidek, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan maʼmuriy organ yoki ularning mansabdor shaxslari tomonidan qilingan noqonuniy harakat (harakatsizlik) yoki ular tomonidan chiqarilgan gʻayriqonuniy qarorlar ustidan yuqori turuvchi organ yoki maxsus tashkil etilgan organga shikoyat qilish va koʻrib chiqish tushuniladi. Bunda Oʻzbekiston Respublikasining Saylov kodeksiga koʻra, saylov bilan bogʻliq nizolar yuzaga kelganda saylov komissiyasiga murojaat qilish mumkin. Jumladan, ushbu Kodeksning 101-moddasiga koʻra, saylov komissiyalari saylov kampaniyasini oʻtkazish davrida jismoniy va yuridik shaxslarning ushbu Kodeks talablari buzilganligi yoki saylovni tashkil etishning boshqa masalalari xususida oʻziga kelib tushgan murojaatlarini oʻz vakolatlari doirasida koʻrib chiqishi, ushbu murojaatlar boʻyicha tekshiruvlar oʻtkazishi va uch kunlik muddatda ularga yozma javoblar berishi, saylovga olti kundan kam vaqt qolganida yoki ovoz berish kuni kelib tushgan murojaatlarni esa darhol koʻrib chiqib, javob qaytarishi shart. Saylov komissiyasining raisi murojaatni koʻrib chiqadi va unga doir qaror qabul qiladi.

Saylovga oid nizolarni hal etishning keyingi turi, yaʼni, sud usuliga toʻxtaladigan boʻlsak, nazariy jihatdan bu jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan maʼmuriy organ yoki ular mansabdor shaxslar i tomonidan qilingan noqonuniy harakat (harakatsizlik) yoki ular tomonidan chiqarilgan qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish va uni koʻrib chiqish tushuniladi

Ushbu nizolar ommaviy-huquqiy xususiyatga ega boʻlsa, bunday nizolar maʼmuriy sudlar tomonidan koʻrib chiqiladi.

Albatta, ushbu protsess toʻla namoyon boʻlishi sud xarajatlariga ham bevosita bogʻliq hisoblanadi. Negaki, davlat bojining toʻlanmaganligi sudda arizachining shikoyatini qaytarishga asos boʻlib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada fuqarolar huquqlarini sud orqali himoya qilish va, asosan, sud xarajatlari masalasi muhokama etiladi.

MATERIAL VA METODLAR

Maqolada huquqshunoslarning ilmiy-nazariy qarashlari asosida fuqarolarning saylovga oid huquqlarini ma'muriy sudlar orqali himoya qilish, ushbu jarayonda sud xarajatlari masalalari muhokama etiladi

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar va sud amaliyoti hujjatlari tahlil qilinib, tegishli taklif va xulosalarga kelinaditaqdim etilgan.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

Fuqarolarning saylovga oid huquqlarini sudga taalluqlilik nuqtai nazaridan tahlil qiladigan bo'olsak, ushbu jarayon nizoning predmetiga bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Negaki saylovga oid ishlar jinoyat yoki ma'muriy sudlar tomonidan ko'riladi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining (MSIYtK) 27-moddasiga asosan, saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish ma'muriy sudlar sudloviga taalluqli bo'lsa, saylovni tashkil etish va o'tkazishdagi huquqbuzarliklar hamda jinoyatlar jinoyat sudlarida ko'riladi.

Fuqarolar saylov huquqlarini ma'muriy sudga himoya qilish sudlovlik jihatdan ham biroz farq qiladi, ya'ni saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarori) ustidan berilgan shikoyatlar tuman (shahar) ma'muriy sudlari, Markaziy saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlarni esa O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi ko'rib chiqadi.

Saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat sud tomonidan shikoyat berilgan kundan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ko'rib chiqilishi, agar saylovga olti kundan kam vaqt qolgan bo'lsa, darhol ko'rib chiqilishi lozim.

Nomzod ko'rsatgan siyosiy partiyalar organlari, nomzodlar, ishonchli vakillar, kuzatuvchilar va saylovchilar saylov komissiyalarining qarorlari ustidan ushbu qarorlar qabul qilinganidan keyin besh kun ichida sudga shikoyat qilishi mumkin. Markaziy saylov komissiyasining qarorlari ustidan qaror qabul qilinganidan keyin besh kun ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga shikoyat qilinishi mumkin.

Shikoyat sud tomonidan arizachini va tegishli saylov komissiyasining vakilini, shuningdek, prokurorni, agar shikoyat arizachiga emas, balki boshqa fuqaroga daxldor bo'lsa, o'sha shaxsni ham chaqirgan holda ko'rib chiqiladi. Bu Mazkur shaxslarning kelmasligi ishni ko'rib chiqishga to'sqinlik qilmaydi.

Sudning hal qiluv qarori chiqarilishi bilanoq darhol tegishli saylov komissiyasiga va arizachiga topshiriladi.

Demak, yuqorida saylovga oid nizolarning ma'muriy sudga ko'rib chiqish tartibiga to'xtalidik, lekin ushbu jarayon davomida sud xarajatlari masalasi ham alohida ahamiyatga ega bo'olib, amaldagi qonunchiligimiz aynan ushbu masalada ham bo'olishlarga ega.

Dastavval, sud xarajatlari tushunchasini muhokama qiladigan bo'olsak, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksining 12-bobi aynan sud xarajatlarga bag'ishlangan bo'olib, unga muvofiq, sud xarajatlari davlat bojidan va ishni ko'rish bilan bog'liq sud chiqimlaridan iborat ekanligi keltirib o'tilgan.

Sud xarajatlari bir qator o'ziga xos belgilardan iborat:

- 1) ular ma'muriy sudlarga murojaat qilish va ishlarni ko'rib chiqish yuzasidan;
- 2) ma'muriy ishlarni hal etishga oid protsessual faoliyatning chiqimlilik, ya'ni tegishli huquq va manfaatlarning himoya qilinishi muayyan to'lov asosida ishda ishtirok etuvchi taraflar hisobidan undirilgan holda hal etilishi;

3) sudga asossiz murojaat etilishining oldini olish va ma'muriy adolatni ta'minlashga oid davlat xarajatlarini qonuniy to'lovlar sifatida o'rnatilgan kompensatsiya qilishnishi ko'rinishida;

4) xarajatlarni to'lash va taqsimlash qonunda belgilangan bo'lib, bu ma'muriy sud ishlarini yuritishning barcha bosqichlari va turlarini qamrab oladi. Misol uchun, davlat bojini to'lash faqatgina sudga ariza taqdim etishda emas, balki sud ishi yurituvining apellyatsiya va kassatsiya bosqichlarida ham to'lash nazarda tutilgan.

Sud xarajatlari o'ozining maqsadlariga ham ega bo'olib, ayrim olimlar ma'muriy ishlarni ko'rib chiqishda odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq sud hokimiyati xarajatlarining davlat tomonidan muayyan miqdorda qoplanishi, ya'ni ushbu xarajatlar sudda faoliyat yuritadigan xodimlarning ish haqlari, sud binosi va anjomlarining amortizatsiyasi, kanselyariya xarajatlari va boshqalardan iborat ekanligini va bu kompensatsion funksiya sifatida e'tirof etilishini ta'kidlashsa, boshqa olimlar undan ko'zlangan asosiy maqsad davlatning odil sudlovni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshirish emas, balki taraflarni o'zlarining fuqarolik burchlarini ixtiyoriy ravishda bajarishga rag'batlantirish va asossiz nizolar qo'zg'atilishining oldini olishdir, deya fikr bildirishadi.

Bizning fikrimizcha, sud xarajatlari ushbu ikkala funktsiyani o'z ichiga oladi. Negaki, tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'rta asrlarda faqat cheklangan ma'lum bir shaxslar (chinovniklar) uchun amalga oshirilgan odil sudlovni boshqaruvchi shaxslar xizmati uchun pul to'langan bo'lsa, sud aholining barcha qatlamiga ochiq bo'lgandan so'ng sud organlarini ish hajmini keskin ravishda oshirib yubordi. Bu holat yana sud xarajatlari institutida o'zgarishlar qilinishiga olib keldi va shu tariqa davlat boji va hamda sud chiqimlaridan iborat bo'lgan sud xarajatlari shakllandi.

Sud chiqimlariga keladigan bo'lsak, MSYtK 113-moddasiga asosan, sud xabarnomalari va sud hujjatlarini yuborish bilan bog'liq pochta xarajatlaridan, sud tayinlagan ekspertizani o'tkazish, guvohni chaqirish, dalillarni joyida ko'zdan kechirish, sud majlisini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish bilan bog'liq xarajatlardan, shuningdek ishni ko'rish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan iboratdir.

Sud xarajatlarining yana bir turi bo'lgan davlat boji masalasining tahliliga keladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'g'risida"gi qonunining 3-moddasiga ko'ra, davlat boji yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirganlik va (yoki) bunday harakatlar uchun vakolatli muassasalar va (yoki) mansabdor shaxslar tomonidan hujjatlar berganlik uchun undiriladigan majburiy to'lov hisoblanadi. Mazkur qonunning 5-moddasiga asosan, saylov komissiyalarining harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish haqidagi shikoyatlar davlat boji undiriladigan obyektlar tarkibiga kiritilgan. Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning 134-moddasida davlat boji va pochta xarajatlari belgilangan tartibda hamda miqdorda to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilmagan bo'lsa, davlat boji to'lashni kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash mumkinligi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa bu haqda iltimosnoma mavjud bo'lmasa yoxud iltimosnoma rad etilgan bo'lsa, ariza qaytarilishiga olib kelishi qayd etilgano'rnatilgan. Biroq "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga Ilovada ushbu boj miqdori qancha ekanligi keltirilmagan. Amaliyotda Qoraqalpog'g'iston Respublikasi, viloyatlar hamda tumanlararo ma'muriy sudlari tomonidan davlat boshqaruvi organlarining, ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlarning, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ularning mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan berilgan arizalar (shikoyatlar) bo'yicha, ya'ni

fuqarolardan BHM (bazaviy hisoblash miqdori)ning bir baravari, yuridik shaxslardan BHM (bazaviy hisoblash miqdori)ning o'n baravarigacha miqdorida davlat boji undirilib kelinmoqda.

Yana bir muammo shundaki, O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida ma'muriy sudlarda davlat bojini to'lashdan ozod qilingan shaxslar toifalari tarkibida "ma'muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan boshqa organlar" jumlasini keltirilgan bo'olib, ushbu holat aniqlashtirilmagan. To'g'ri, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasida ma'muriy-huquqiy faoliyat — ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga yoxud muayyan xususiy belgilariga ko'ra ajratiladigan shaxslar guruhiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqaruv faoliyati sifatida keltirilgan va bu quonunning 3-moddasida saylovlarni o'tkazish jarayonlariga nisbatan tatbiq etilmasligi keltirilgan. Biroq bu holat saylov komissiyalarining ma'muriy huquqiy faoliyatni butkul amalga oshirmaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Sababi saylov komissiyasi qarorlarida ham ma'muriy-huquqiy faoliyat elementlarini ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng doiradagi islohotlar sud, jumladan ma'muriy sudlarda ham bir qator o'zgarishlar kiritish kerakligini nazarda tutadi. Xususan, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, saylov komissiyalarining xatti-harakatlari (qarorlari) yuzasidan nizolashish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirish kiritib, davlat boji muammosini hal qilish lozim bo'ladi. Negaki bu ham, o'z navbatida, saylovga oid nizolarni hal etishda sud protsessiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.12.2023-y., 03/23/889/0978-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.11.2023-y., 03/23/880/0905-son; 19.12.2023-y., 03/23/883/0949-son.
3. Ma'muriy huquq va protsess. Darslik. S.A.Muratayev, B.T.Musayev, D.R.Artikov// - Toshkent:Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y.
4. Жураев, Ш. . (2022). Некоторые правовые вопросы судебных расходов в административном судебном производстве. Общество и инновации, 3(6/S), 43–51. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss6/S-pp43-51>
5. Ш.Шорахметов - "Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик процессуал ҳуқуқи", дарслик.
6. Дмитриев Ф. М. История судебных инстанций и гражданского апелляционного судопроизводства от Судебника до Учреждения о губерниях. Т. 1. М., 1899—1900. С. 271.
7. Шмотин Кирилл Сергеевич (2018). Пути развития института судебных расходов: сравнительно-правовой анализ. Журнал российского права, (10 (262)), 147-155. С.150
8. Ражабова Карима Қахрамоновна. (2022). Сайлов комиссиялари, уларнинг хатти-ҳаракатлари(қарорлари) тушунчаси ва ўзига хос хусусиятлари. Eurasian journal of law, finance and applied sciences, 2(3), 175–186.